

O'ZBEK VA ARAB TILIDA OT SO'Z TURKUMI QIYOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10341352>

O'rinoval Bonu O'tkir qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va arab tilidagi so'z turkumlari, shuningdek, ot so'z turkumi, uning o'ziga xos xususiyatlari, grammatik kategoriyalari o'zaro qiyoslangan. Shuningdek, ikki tildagi atoqli va turdosh otlar qiyosi keltirilgan.

Kalit so'zlar

mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, ot, oqil, g'ayri oqil, ism, turdosh ot, atoqli ot.

So'zlarning lug'aviy va grammatick jihatdan farqlanishiga ko'ra guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi.

1) *mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.*

2) *yordamchi so'zlar: bog'lovchi, ko'makchi, yuklama.*

3) *oraliqdagi so'zlar: modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar.*

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tilida so'z turkumlari mustaqil so'zlar turkumiga kiradi va olti ko'rinishda bo'ladi:

1.Ot 4.Fe'l

2.Sifat 5.Olmosh

3.Son 6.Ravish

Arab tilida so'z turkumlarini o'rganadigan bo'lim sarf ilmi (علم الصرف deb nomlanadi. Sarf ilmi turli ma'nolarni anglatadigan kalimalarning turlarini o'rgatadigan ilmdir. Chunki arab kalimalari (so'zlari) xilma-xil ma'nolarni anglatish uchun turli-turli bo'lib, turlanib keladi. Arab tilida kalimalar katta uch qismga bo'linadi. Ular quyidagilar:

1.*Ism*(اسم) 2.*Fe'l*(فعل) 3.*Harf*(حرف)

Ism(اسم)- bu qismga narsalar va jonzotlar (ot so'z turkumi) otlari, sifatlar, sonlar, ish-harakat (harakat nomi) nomlari va shaxs otlari (olmosh) kiradi. Shu bilan birga jonli va jonsiz narsalarni, faqat harakat va zamonni bildiradi.

1.*Jonli-* - (رجال) - *kishi;*

2.*Jonsiz-* - *oy;*

3.*Harakat-* (شرب) - *ichish,* (قراءة) - *o'qishi;*

4.Zamon- (صباح)- *tong*;

5.Sifat- (كسلان);

6.Shaxs otlari (نحن)- *biz*.

Arab tilidagi ot kimni yoki nimani anglatishiga qarab Oqil (عقل) va G'ayri oqil (غير عقل) ga bo'linadi. Oqilni anglatadigan otlarga shaxsni anglatgan otlar kiradi. G'ayri oqilni anglatadigan otlarga shaxsdan boshqasini, ya'ni narsa-predmet, voqeа-hodisa, o'rin-joyni bildirgan otlar kiradi. Masalan:

1.Oqil- (Zaynab), زینب (shifokor); طبیة

2.G'ayri oqil - (sher), فار (sichqon).

O'zbek tilida arab tilidagi kabi oqil va g'ayri oqil degan tushunchalar yo'q. Ammo arab va o'zbek tilidagi ot so'z turkumi ma'no va shakl jihatdan tuzilishi o'xshashdir. Masalan, o'zbek tilida shaxs-narsa ma'nolarini va joy nomlarini bildirib, kim? nima? qayer? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlar ot deyiladi. Kim? Nima? Qayer? so'roqlaridan kelib chiqqan holda otlar, shaxs otlari, narsa-buyum otlari va o'rin-joy otlariga bo'inadi. O'zbek tilida bu otlarning bo'linishi yuqorida aytib o'tilgan oqil va g'ayri oqil ko'rinishlari bilan o'xshash. Faqtgina shular qatorida o'rin -joy otlari berilmagan.

A)*Shaxs oti – Botir, shifokor, talaba, ota*;

B)*Narsa oti- qalam,daftар*;

D)*O'rin-joy oti-tomorqa, Buxoro*.

Arab tilida jins tushunchasi mavjud bo'lib, ular muannas-ayol, muzakkarkerak jinslaridir. Bilamizki, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida jins tushunchasi yo'q. So'zlarni muannas jinsga mansubligini bilish uchun so'zning oxiriga ة (tun) harfini qo'yamiz. Masalan: حلیمة(Halima), سعیدة(Saida).

Ot so'z turkumida jins tushunchasi bo'lib, jinsi o'zgarmas bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, jinsi yo muannas yoki muzakkak jinsda bo'ladi. Masalan:

Muzakkakar; جبل (uy) (Ali); علی (tog')

Muannas; مجلة (jurnal), (daftар); كراسة

O'zbek tilida ot so'z turkumi predmetning umumiyligi nomini bildirishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1.Atoqli otlar

2.Turdosh otlar

Ayrim shaxs yoki narsa-buyumga atab qo'yilgan nomlar atoqli ot deyiladi. Kishilarning ism-familiyasi, joy nomlari atoqli otlardir. Masalan: Hasan, Bakr, Fotima, Oysha, Laylo, Zaynab, Ilhom- shaxs nomlari;

Qohira, O'zbekiston, Turkiya -joy nomlari.

Turdosh otlar bir turdag'i shaxs va narsa buyumning umumiyl nomini bildiradi. Qanday ma'noni ifodalashi va nimani nomlab kelishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1.Shaxs otlari: chol, kampir, xola, ota-on;

2.Narsa otlari: kitob, qalam.

Shu bilan birga, hayvon, o'simlik, oziq-ovqat, kiyim-kechak otlari ham kiradi. Masalan: jirafa, tovus, go'sht, palov, ko'ylak, palto, atirgul, rayhon.

Endi arab tili bilan taqqoslaydigan bo'lsak, arab tilida ham otlar ikkiga bo'linadi.

1.Atoqli otlar 2. Turdosh otlar.

Atoqli otlar shaxs yoki narsa buyumga atab qo'yiladi. Yuqorida aytib o'tilgan misollar arab tilidagi atoqli otlarga namuna bo'la oladi. Masalan:

Shaxs nomlari: Hasan (حسن), Fotima (فاطمة), Zaynab (زينب), Ilhom (الهام).

Ilhom ismi o'zbeklarda o'g'il bolaga atab qo'yilsa, arablarda bu ism qiz bolalar uchun ham atab qo'yiladi.

Joy nomlari: Qohira (القاهرة), Turkiya (تركيا).

Arab tilidagi turdosh ot ham o'zbek tilidagi kabi predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomini bildiradi. Turdosh ot, atoqli otlarga qaraganda ko'p miqdorni tashkil qiladi. Yuqorida o'zbek tilida berilgan misollarni, arab tiliga o'girib, tushunib olishga harakat qilamiz.

1.*Shaxs otlari: chol (شيخ), kampir (شيخة), xola (خالد), oshpaz (طباخ).*

2.*Narsa otlariga o'simlik, hayvon, kiyim-kechak, oziq-ovqat otlari misol bo'ladi.*

A) *kitob (كتاب), qalam (قلم) - narsa oti;*

B) *tovus (زرافة), jirafa (حصان) - hayvonot oti;*

D) *go'sht (لحم), palov (بيلاف) - oziq-ovqat oti;*

E) *atirgul (ورد), rayhon (رياح) - o'simlik oti;*

F) *ko'ylak (قميص), palto (بلطو) - kiyim-kechak oti.*

Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, kishining kasbini anglatgan turdosh otlar muzakkari (erkak) va muannasi (ayol) jinsida bo'ladi. Masalan:

علم - o'qituvchi طبيب - shifokor

معلمة - o'qituvchi ayol طبيبة - shifokor ayol

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, arab va o'zbek tilidagi so'z turkumlari bir-biriga juda o'xshashdir. Ayniqsa, ot so'z turkumi ikkala tilda ham bir xil turlarga bo'linadi va bir xil ma'nolarni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sayfullayeva.R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva. G., va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T., fan va texnologiya.,2009;
- 2.Abdujabborov. A., Arab tili – T.,2005;
- 3.Talabov.E., Arab tili.-T: O'zbekiston, 1993;
- 4.Astanova.G.A. Arab tilidan boshlang'ich kurs., Buxoro -2023 "Durdona" nashriyoti.
- 5.Arabic.uz., "Ilmi sarf ta'rifi".